

“O‘tkan kunlar” asarida Zaynab obrazining mifopoetik talqini

Jaxongir Normatov

Xorazm viloyat teleradiokompaniyasi

muharriri

Har bir adabiyot ihlosmandini dastlab, bir savol o‘ylantirgan bo‘lsa kerak. Avval, og‘zaki adabiyot paydo bo‘lganmi yoki yozma? Insoniyat bugungi taffakkuriga o‘z-o‘zidan kelib qolmaganini tushunganimizdan keyin, datlab og‘zaki adabiyot namunalari paydo bo‘lganligini bemalol ayta olamiz. Buni fanda ham aniq dalillar bilan olimlarimiz isbotlashgan. Xo‘sh, unda qaysinisi yetakchilik qiladi, g‘oyalar ko‘lami qay birida kuchli? Bu savolga ham javob aniq. Bugun jamiyatdagi barcha insonlar yozish va o‘qishni bilgandan keyin ularning qarashlari zamon bilan hamnafas bo‘ldi. Shuning barobarida, qalbimiz quloqlarga yoqadigan, bolalikdan ruhimizga singib ketgan qahramonlar haqida o‘ylashni, ertak va dostonlardagi kabi bahodirlar, malika va pariylar simosini kimdadir ko‘rishni istaydi. Ammo endi ular go‘dak emas, aqlga sig‘maydigan bahodirliklar, kutulmagan jasorat ko‘rsatishlarni falonchi ko‘rsatibdi - desa, ishonadigan soddalik qolmadi. Biroq, qalbdagi kechinmalar o‘sha sodda, jo‘n, ammo hayratlanarli mo‘jizalarni hech bo‘lmasa o‘xshashini izlaydi. Shu yerda ijodkor mahorati, mifopoetik talqin maydonga keladi. Zamonaviy adabiyotdagi obrazlar siymosini endi o‘z asarlariga sezdirilmagan holda singdiradi. Buni dastlab, ertaklar misolida oladigan bo‘lsak, voyaga yetgan, ilm-u hunar, jangovor sirlarni yaxshi o‘zlashtirgan qahramon o‘z baxtini izlab yo‘lga chiqadi. Bu yo‘lda turli sinovarga duch keladi. Bu sinovlarni yengish uchun unga yaqin do‘sti yordamga keladi. Bu do‘st simosi har bir ertakda turlicha bo‘ladi. Ular hayvonlar, qushlar, sehrar, insonlar qiyofasida gavdalanadi. “Alpomish” dostonida ilohiydan do‘st tutingan Qorajon Alpomish uchun o‘z akalaridan ham voz kechadi. Yovlarni yengishda unga ko‘mak beradi. Aynan bu obraz yozma adabiyotda ham mavjud, faqat zamonaviy ko‘rinishda.”O‘tkan kunlar” asarida Usta Alim obrazi Otabekni Marg‘ilonda uchratgan, u bilan do‘st tutingan qadrdoni. Otabek unga o‘zini boshqa kishi sifatida tanishtirgan bo‘lsa ham, Kumush haqidagi ma‘lumotlarni bilishda unga yordam beradi. Asar oxirda ruslarga qarshi bo‘lgan jangda ikkalovlari eng oldingi safda jang qilib, halok bo‘lishadi. Bu yerda yakun biroz o‘zgargan ammo mohiyat bir xil. Bu holat do‘stdan tashqari dushman obraziga ham tegishli. Har bir asar qahramonining

dushmani bo'ladi va ular mag'lub bo'lgachgina dorulomon kunlar keladi. Yana "Alpomish" dostoniga to'xtalsak, unda Maston kampir obrazi bor. U Alpomishni zindonda yotishiga, o'zbek urug'ining qalmoqda xor bo'lishiga sababchi bo'ladi. Boychibor yordamida zindondan chiqqan Alpomish uni yengadi. Boysari va uning xotinini ozod etadi. O'sha Maston obrazini boshqa asarlarda, ayniqsa, ertaklarda yalmog'uz kampir misolida uchratamiz. Doimo barcha asarda yovuzlik urug'ini sepib yuruvchi bu kabi mifik qahramonlar "O'tkan kunlar" asarida ham uchraydi. Lekin u qayerda degan savol tug'ulgan bo'lishi mumkin.

Ko'plab muhokamalarga sabab bo'lgan bir obrazga e'tiboringizni qaratmoqchi edim. Zaynab-bechora, beayb, murakkab obraz, yopishmagan obraz sifatida majburan singdirilgan degan fikrlarni keltirib chiqargan muhokamalarning bir yechimi bor. Agar yaxshilab e'tibor qaratsangiz, Abdulla Qodiriyning mahoratini shu yerda sezasiz. Hech o'ylab ko'rdingizni asar voqealarini tubdan o'zgartirib yuborgan, o'ylamagan va istamagan hodisalarga sabab bo'lgan qahramon Maston kampir obrazining stilizatsiyalashgan talqini deya? Bu ayni haqiqat. Agar asarni qayta o'qib chiqsangiz bunga amin bo'lasiz. Aytaylik, Otabekning ikkinchi bor uylanishi-aslida barcha chalkashliklar shu yerda boshlandi. Shirin orzular, go'zal sevgi qissasida uchunchi odam paydo bo'ldi. Sevgi uchburchagini yuzaga keltirdi. Bunda Kumush va Otabek o'rtasida sovuqlik tushmadimi? Qutidorning hurmatli va sevikli kuyovga ishonch va munosabat o'zgarmadimi? To'g'ri, u asardagi kabi kimnidir bir-birovga qayramaydi, ko'rinishidan ojiza, ezilgan holatda maydonga keladi. Ko'plab shoirlar u haqda achinib she'rlar ham yozgan. Sevikli shoirimiz Muhammad Yusuf tomonidan yaratilgan she'r dillarni titratgan, Shuhrat Qayumov ijrosidagi qo'shiq yuraklarni larzaga solgan bo'lishi mumkin, ammo bu qarashlar oddiy kitobxon uchun haqli. Lekin Abdulla Qodiriyning stilizatsiyadan ustalik bilan foydalanishi natijasida Zaynab asardagi pozitsiyasini to'laqonli ado etadi.

- Sevishganlarning ikki yillik ayriliqqa tushishlari, huddi Alpomish va Barchinoy kabi. Alpomish yetti yil zindonda yotsa, Otabek ikki yil ikki o't orasida sargardon bo'ladi. Marg'ilon va Toshkent qatnaydi.

- Do'stlar orasiga sovuqchilik tushurish, bir-birga qayrash holati. Asarda Otabekning do'sti o'rtasida hech qanday sovuqchilik tushmaydi. Zaynab hatto uni tanimaydi-ku, - deyishingiz mumkin. Yozuvchi bu jihatni sezdirmasdan ota-ona obraziga ko'chiradi. Oradagi munosabatlar o'zgarishi O'zbekoyim va o'g'il o'rtasida kechadi. "O'sha andini..." –deya boshlalanigan har kunlik ta'nalar bekor ketti deysizmi? Ijodor faqatgina Otabek va Yusufbek xojining kulib qo'rganini ifodalagan bo'lsa ham, tilab olgan o'g'liga bunday jahl qilishi aqldan emas edi. Mana shu ziddiyatlar natijasida oraga Zaynab kirib keladi. Bu yerda uning asarga

kiritilmasidan ham oldin voqealarning qanday tus olayotganini sezish mumkin. Bu voqealar Otabekni ikkinchi bor uylanishga majbur bo'lishi oqibatlarini kuchayib boraveradi. Yangi kelin-kuyovning munosabatlaridagi sovuqlik, keyinchalik Toshkentga qizini yuborishni xohlamagan Qutidor va uning xotini endi Kumushni baxtini o'yab o'zgaga turmushga berishga urinishlari, bunda Homid tomonidan yonlangan Maston kampir obrazi ishtiroki hissa qo'shadi. Otabekning favqulotda qahramonligi ana shu orada paydo bo'ladi. Bu haqda Dilmurod Quronovning "“O'tkan kunlar” dagi mifopoetik tahlil tajribasi” maqolasida bilib olishingiz mumkin. Bu qahramonlikdan keyin Qutidor Kumushni Toshkentga, Yusufbek xoji xonadoniga olib keladi. Agar boshqa xalq ertak va dostonlariga qiyos qilsak, asar shu yerda yakunlanishi kerak edi. Axir oilada hamma jam bo'ldi. Lekin yozuvchining maqsadi boshqa. Endi u Maston obrazining asosiy vazifasini oxiriga yetkazishi, qahramonlarning shiddatli kurashini maydonga keltirishi kerak. U shunday qildi ham.

Endi dushman bilan bir uyda yashash, baxtini baham ko'rish, o'zaro pinhoniylar janglar boshlandi. O'qimishli va odobli deya ta'riflangan Kumush rashq va nafrat tufayli Zaynabni ustida kulishi, o'zini undan ustun ekanligini ko'rsatishi bilan kitobxonda Kumushga bo'lgan mehr biroz so'nishi mumkin. Bu yerda ham Maston asardagi kimnidir emas, siz aziz kitobxonni Kumushga g'ijgichlamoqchi bo'ladi. Ana shunday holatlar natijasida Zaynabga rahmi kelgan kitobxon uni beayb ekanligini isbotlamoqchi bo'ladi. Bu baxslar hali ham davom qilmoqda. Demak, shuning o'zi hamon u o'z vazifasini bajarib kelayotganini ko'rsatadi. Chunki bosh qahramonda kamchilik va nuqsonlar bo'lmasligi kerak. Qodiriy asarlarida esa aksincha. Ular Zaynab tufayli asta-sekinlik bilan yuzaga chiqib boraveradi.

Asar yakunida Kumushning zaxarlanishi. Eng asosiy missiyani bajardi. Kundoshiga zaxar berib, o'z maqsadiga erishdi. Esdaliklarning birida Qodiriyning o'zi ham Kumushni o'ldirishni istamagani, uni asarning borishi shunday qilishga majbur qilgani, "Kumushni o'ldirib qo'ydim..." , -deya yig'lagani bilan izohlanadi. Demak, Zaynab biz kutmagan, o'zi istagan natijaga erishdi. Yovuzlik ramzi sifatida asarda gavdalandi. Xo'sh, shu bilan yakun topdimi deysiz? Yo'q, albatta. U har kuni Kumush qabrini ziyorat qiladigan Otabekni muttasil taqib qildi. O'zidan ham, Kumushdan ham bezitishga urundi. Otabek Kumushdan qolgan yolg'iz o'g'li Yodgorga ham g'amxo'rlik qilgan syujetlar berilmaydi.. demak, u o'g'liga ham bemehr bo'lib qoladi. Bu tashvishlar, ayriliq dardidan qutilish uchun jangga o'tlanadi. Asar yakunida Otabekning vafoti tufayli Yusufbek xoji elga osh beradi, O'zbekoyim qora kiyib, aza tutadi.

“Keyingi Marg‘ilon borishimda yaqin o‘rtoqlardan Yodgorbek to‘g‘risini surishtirib bildim: Yodgorbek ushbu asrning o‘n to‘qqiz va yigirmanchi ochliq yillari miyonasida vafot qilib, undan ikki o‘g‘ul qolibdir. O‘g‘ullaridan bittasi bu kunda Marg‘ilonning mas‘ul ishchilaridan bo‘lib, ikkinchisi Farg‘ona bosmachilari orasida ekan. Bu kunda nomu nishonsiz, o‘luk-tirigi ma‘lum emas, deydilar”. Mana shu satrlar bilan yakunlangan asarda bir mohiyat yashirin. Agar yakunga yaxshilab e‘tibor beradigan bo‘lsak, elning eng sara yigitlarining taqdiri shunday tugagani, otalar farzandlarning marakasini o‘tqazish bilan ovvora bo‘lishlari, o‘zbek onalari-bu yerda xalq nazarda tutilmoqda- qora kiyishlari, yurt va millat boshiga tushgan qora kunlardan dalolat beradi. O‘sha Zaynab obrazining stilizatsiyasi tufayli, Mastonlarning ta‘sirida qaramlik, azadorlik kelib chiqqanini ko‘rsatadi.

Yana bir jihat, yozuvchi bugun mastonlar yengiladigan zamon emas, ular qaytanga kuchaygan, bahodirlarga ko‘makchi bo‘ladigan rahnamolar yetishmaydi-degan xulosani beradi. Chunki ularning onalari Zaynablar tomonidan zaharlangan, otalari hayotdan umidini, yashash zavqini yo‘qotgan. Qarangki, ularning nabiralari endi ularga qarshilik qila olmaydi. Hatto, o‘z aka-ukasidan kechishga tayyor holatga kelib qolgani - *O‘g‘ullaridan bittasi bu kunda Marg‘ilonning mas‘ul ishchilaridan bo‘lib, ikkinchisi Farg‘ona bosmachilari orasida ekan. Bu kunda nomu nishonsiz, o‘luk-tirigi ma‘lum emas, deydilar-* degan yakuniy satrlarda ifodalanadi.

Yozuvchi, o‘z asarida qahramonlarni mifopoetik talqin qilgan holda maydonga keltirgan bo‘lsa ham, zamonga moslashtirgan. Davr shundayligini, mardlar ojiz qolayotganini, ruslar istilosidan avval urug‘lar o‘rtasida qirg‘in avj olgan bo‘lsa, endi aka-ukalar bir-birini qirayotganini aytmoqchi bo‘ladi. Bu oldin boshlangan holatligini, asrlar osha davom qilayotgan yovuzlik va yaxshilik kurashida endi yovuzlik g‘olib ekanligini realistik yondoshuvda ko‘rsatadi. Oramizdagi mastonlardan qutilmas ekanmiz, ahvolimiz bundan ham yomonlashib boraveradi-degan g‘oyani maydonga tashlaydi. Maqolamizda ustozlarimizning fikrlariga tayangan holda o‘z mushohadalarimizni bayon etdik.